

SOTSIOPRAGMATIKANING JAHON VA O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

Asatulloeva Muhayyo

Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi
muhayyoasatulloev@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18985058>

Anotatsiya: Ushbu maqolada sotsiopragmatikaning kelib chiqish tarixi, shakllanish bosqichlari, muloqot va inson nutqining ijtimoiy omillar asosida o‘rganilishi va sotsiopragmatik tadqiqotlar tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: antroposentrik tilshunoslik, sotsiopragmatika, pragmatika, nutq, ijtimoiy omil, kognitiv yo‘nalish, kommunikatsiya.

Аннотация: В данной статье анализируются истоки социопрагматики этапы её формирования, изучение коммуникации и человеческой речи на основе социальных факторов, а также социопрагматические исследования.

Ключевые слова: антропоцентрическая лингвистика, социопрагматика, прагматика, речь, социальный фактор, когнитивная ориентация, коммуникация.

Annotation: This article analyzes the origins of sociopragmatics, stages of formation, the study of communication and human speech based on social factors, and sociopragmatic research.

Keywords: anthropocentric linguistics, sociopragmatics, pragmatics, speech, social factor, cognitive orientation, communication.

Sotsiopragmatikaning o‘rganilish, avvalo, pragmatikaning, ya’ni inson nutqining o‘rganilishidan boshlandi.

Tilshunoslikda antroposentrik nazariyaning paydo bo‘lishi, albatta, V. fon Gumbolt va F.de Sossyurlar nomi bilan bog‘lanadi. Ularning tilshunoslikdagi fundamental g‘oyalari til faktlarini nutqiy faoliyat va inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganishga yo‘l ochdi. V. fon Gumboltning tilga falsafiy yondashuvi, A.Gardinerning til va nutq nazariyasi, M.M.Baxtinning ifoda nazariyasi haqidagi qarashlari asos vazifasini o‘tadi[1].

Badiiy matnning xususiyatlari antroposentrik tilshunoslikning, ayniqsa, lingvokulturiligiya, psixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, pragmalingvistika yo‘nalishlarida qiziqish bilan o‘rganila boshlandi. Jumaladan, rus tilshunosligida G.I. Bogin, Y.A. Chijova, V.P. Belyanin, L.N. Churilina, I.A. Ashirova, N.S. Bolotnova, T.I. Suran, A.A. Yevtyugina, M.V. Shpilman, O.V. Suxareva, D.A. Shukina, Y.N. Karaulov va boshqalarning tadqiqotlarida antroposentrik paradigmaning turli yo‘nalishlarida tadqiq etildi.

Jahon tilshunosligining bugungi taraqqiyot bosqichida til va jamiyat, til va madaniyat munosabati, inson ruhiyatining tilga ta’siri, tildan inson bilimlarining voqelanishi kabi masalalar o‘rganish ustivor vazifalardan biri sanaladi.

Til hodislarini o‘rganishga antroposentrik yobdashuv badiiy matn tadqiqida ham yangi qarashlarni yuzaga keltirdi. Xarakterli jihati shundaki, tilshunoslikda eng ko‘p badiiy matn o‘rganishga e’tibor qaratildi. Badiiy matn dastlab kommunikativ, stilistik-funksional aspektlarda, keyinchalik boshqa yo‘nalishlarda tadqiq etildi. Quyidagi yo‘nalishlarda badiiy matn ko‘proq tahlil qilindi:

- 1) kommunikativ yo‘nalish(O.N.Seliverstova, M.L.Makarov va b.);
- 2) stilistik tahlil yo‘nalishi(V.G.Kostomorov, D.Kristal, Sh.Balli, I.V. Arnold va b.);
- 3) lingvo-stilistik tahlil yo‘nalishi(L.A. Novikov, E.S.Aznaurova, M.S. Chakovskaya va b.);
- 4) lingvosentrik va tekstosentrik yondashuvlar (V.A.Buxbinder, V.G.Gak, I.R.Galperin va b.);
- 5) Kompozitsion tahlil yo‘nalishi (V.M.Jirmunskiy, L.G.Kaida, A.I.Gorshkov va b.);
- 6) Umumlingvistik tahlil.

Bunday tahlil yo‘nalishlaridan tashqari jahon tilshunoslari badiiy matn o‘rganishga bo‘lgan yondashuvlarga ham har xil yondoshganlar. L.Balakina badiiy matn o‘rganishga quyidagicha yondoshganini ko‘rishimiz mumkin:

1) lingvosentrik – badiiy matnda til birliklari va tilga xos kategoriyalarning qo‘llanishini o‘rganishga asoslangan yo‘alish;

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

2) tekstosentrik – matnni badiiy muloqot subyektlari bilan bog‘lamay o‘rganishning avtonom yaxlit obyekti sifatida tahlil qilishga asoslangan yo‘nalish;

3) antroposentrik – matnni yaratish va idrok etish, o‘quvchiga ta’sir qilish nuqtayi nazaridan talqin qilish bilan bog‘liq yo‘nalish;

4) kognitiv – tilga dunyo haqidagi bilimlarni aks ettirishning asosiy vaositasi sifatida qarashga asoslangan yo‘nalish.

So‘nggi yillarda badiiy matnni lingvokulturologik va pragmatik aspektda tadqiq qilish ommalashdi. V.A.Maslova aytganidek, “matn tilshunoslik va madaniyatning kesishuv nuqtasidir”. Ya’ni badiiy asarda xalqning milliy mentaliteti, madaniy qarashlari, urf-odatlar muallif va personajlar nutqi orqali aks etadi.

Hozirgi davrga kelib, tilshunoslikda yangi paradigmalarni o‘rganishga katta ahamiyat berilmoqda. Jumladan, badiiy matnni sotsial va pragmatik xususiyatlarini ochib berish masalalaridir. Badiiy matnni sotsiopragmatik tadqiqi shundayki, deydi X. Yo‘ldosheva o‘z tadqiqotlarida, til birliklarining ijtimoiy va badiiy kontekstda qo‘llanish xususiyatlarini ochib berishda, muallifning matn yaratishdagi ijtimoiy vazifasi va rolini aniqlashda, badiiy asar personajlari nutqining pragmatik xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Jahon tilshunosligida sotsiopragmatik yo‘nalishda tadqiqot olib borgan asosiy nazariyotchi olimlardan biri G. Leechdir. Olim sotsiopragmatik me’yorlar va madaniyatlararo muloqotni o‘rgangan. Shuningdek, Nutq odobi (Politeness Principle) nazariyasini ishlab chiqqan. Shuningdek, P. Brown va S. Levinsonlar ijtimoiy masofa va maqom va majburiyat tushunchalarini tahlil qilganlar va “xushmuomalalik nazariyasi”ni ishlab chiqqanlar. Tilshunoslikka sotsiopragmatik va pragmatik xatolar farqini kiritgan olim J.Thomas hisoblanadi. G. Kasper intertil pragmatika va sotsiopragmatika bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Ikkinchi til o‘rganishda ijtimoiy-pragmatik kompetensiya masalalarini o‘rgangan. Jahon tilshunosligida bunday tadqiqotlarni o‘rganish davom etyapti.

O‘zbek tilshunosligida ham antroposentrik paradigmaning turli fanlar hamkorligida yuzaga kelgan lingvokulturologiya, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistik yo‘nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda. Tilshunos, D. xudoyberganova aytganidek, inson nutqi uning o‘zi kabi murakkab va ko‘p qirralidir. Bu borada tilshunoslik sohlarining hamkorligi o‘z samarasini berishi shubhasizdir.

Bu borada D. Xudoyberganovaning “O‘zbek tilidagi badiiy matnlarning antroposentrik talqini” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida badiiy matnning lingvokulturologik, psixolingvistik, lingvokognitiv xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, M.Hakimov, S.Boymirzayeva, O‘. Qobilov, S.Maksumova, N. Qazaqova, M. Umrzoqovalarning tadqiqotlarida esa badiiy matnning lingvopragmatik xususiyatlari yoritilgan bo‘lib, M.Hakimovning “O‘zbek tilida matnning pragmatic talqini” mavzusidagi dissertatsiyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda olim pragmatikaning amaliy va nazariy shakllanishi, umumiy va xususiy masalalarini izohlagan. Tagma’no, presuppozitsiya, nutqiy akt kabi pragmatik masalalarga munosabat bildirgan. Ushbu tadqiqot o‘zbek pragmatikasi bo‘yicha ilk tadqiqotlardan hisoblanadi.

Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, har bir matn ko‘p qirrali va turli aspektlarda o‘rganilishi mumkin bo‘lgan nutqiy faoliyat mahsulidirki, u ijtimoiylik belgisiga ko‘ra sotsiopragmatik jihatdan o‘rganiladi. O‘zbek tilshunosligida ham bu boradagi tadqiqotlar salmog‘i oshib bormoqda. Jumladan, X. Yo‘ldoshevaning “Badiiy matnning sotsiopragmatik tadqiqi” ga bag‘ishlangan doktorlik dissertatsiyasida badiiy matnni sotsiopragmatik aspektda tahlil qiladi, ya’ni badiiy matn yaratishda sotsiopragmatikaning o‘rnini belgilaydi, badiiy matn sotsiopragmatikaning obyekti sifatida o‘rganiladi, shuningdek, sotsiopragmatik nuqtayi nazardan badiiy matnni adresant va adresatning o‘zaro munosabati, nutq vaziyati, muloqot sharoiti va muloqot shakli omiliga ko‘ra tiplarga bo‘lib tahlil qiladi. Muxtasar qilib aytganda, badiiy matnning sotsiopragmatik xususiyatlarini yoritib beradi.

Shuningdek, M.Xolmurodovanning “Erkin A’zam kinoqissalari tilining sotsiopragmatik aspekti” mavzusidagi dissertatsiyasi ham shu yo‘nalishdagi tadqiqot bo‘lib, unda kinoqissalar matnidagi nutqiy vaziyat, nutqiy aktga aloqador hodisalar tahlil qilingan, shuningdek, noverbal vositalarning pragmatik tavsifiga alohida to‘xtalgan. Kinoqissalar matnida grammatik vositalarning nutqiy xoslanishiga to‘xtalib, so‘z tartibining kinoqissalar matni bilan aloqador uslubiy-ekspressiv jihatlari, modal ma’no ifodalovchi so‘zlarning pragmatik munosabatlari, nutq vaziyatiga qarab so‘z turkumlarining qo‘llanishiga xos bo‘lgan tahlillar keltirilgan.

Sotsiopragmatika oid yana bir tadqiqotlardan biri G.Niyozovanning “Dedektiv romanlar tilining sotsiopragmatik aspekti va gender xususiyatlari” deb nomlagan dissertatsiyasidir. Ushbu tadqiqotda tilning ijtimoiylashuvini aniq ochib beradigan asarlar, dedektiv romanlarning sotsiopragmatik

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

xusuiyatlari, gender xoslanishlari yoritilgan. Ayollar va erkaklar nutqning asosiy farqlari, ularda qo‘llaniladigan ibora, argo, jargo, maqol, to‘liqsiz gap kabilar vositalarning muloqotdagi qiymati, ijtimoiy ahamiyati tadqiqi qiligan.

Dedektiv asarlardan yiroqlashmagan yana bir tadqiqot M.Yo‘ldoshevaning “Xushmuomalalik nazariyasining sotsiopragmatik tadqiqi”ga bag‘shilnagan monografiyasidir. Ushbu tadqiqotda o‘zbek tilshunosligida sotsiopragmatikaning shakllanishi, sotsiopragmatikada xushmuomalalik strategiyasining o‘rni ahamiyati yoritilgan. T.Malik asarlari asosida ijtimoiy guruhlarining muloqot jarayonidagi mutqiy aktlari, ijtimoiy guruhdagi sotsilektlarning ahamiyati va hatto laqablarning sotsiopragmatikadagi o‘rni belgilangan, tadqiq etilgan.

L.Raupovanning “Diskursiv talqinda polipredikativ birliklar” nomli doktorlik dissertatsiyasida qo‘shma gaplarning diologik dikursdagi voqealanishi, struktur-semantik, lingvokulturologik va sotsiopragmatik tamoyillari yoritilgan bo‘lsa, Z.Karimovanning “O‘zbek va ingliz tillarida so‘z-gaplarnig sotsiopragmatik xususiyatlari” mavzusidagi dissertatsiyasi sotsiopragmatikaning chog‘ishtirma aspektdagi muammosiga bag‘ishlangan ishlar sirasiga kiradi.

Yana bir sotsiopragmatik aspektda olib borilgan tadqiqotlardan biri D.Po‘latovanning “O‘zbek tilida murojaat shakllarining sotsiopragmatik tadqiqi” nomli doktorlik dissertatsiyasidir. O‘zbek tilida murojaat shakllari o‘rganilgan mavzulardan bo‘lib, lekin ularning ijtimoiy xoslanishi, turli kasb vakillari nutqida qanday xoslanishi, gender imkoniyatlari kabi masalalar yuqoridagi tadqiqotning ayni o‘rganish obyekti bo‘ldi.

Shuningdek, professor S.Mo‘minning “O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari” hamda professor Sh.Iskandarovanning “O‘zbek nutq odatining muloqot shakllari” nomli doktorlik dissertatsiyasilari sotsiopragmatik tadqiqotlar uchun poydevor bo‘lgan desak, adashmagan bo‘lamiz. Chunki har ikkala tadqiqotda ham nutq uchun muloqotning o‘rni va paytining mavjudligi, so‘zlovchi va tinglovchining ishtiroki, maqsad, asos, aloqa vositalari, xulq-atvorning maxsus belgilangan shakllari, ifoda mavzusi, so‘lashuvchilarning o‘zaro munosabatlariga xos xususiyatlari, ijtimoiy belgilar, vaziyatning rasmiy va norasmiylikini belgilarini tanlab, ularni barqaror va o‘zgaruvchi begilarga ajratish [2] kabi masalalar yoritilgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, sotsiopragmatika o‘zbek tilshunosligidam yaqinda paydo bo‘lgan soha emas. Ushbu yo‘nalish tilshunosligimizning qaysidir bo‘limida, qaysidir jihatida yonma-yon o‘sib bordi, takomillashdi va hozirda yangi yo‘nalish sifatida qaralmoqda. Hozirda sotsiopragmatikada til birliklarining ijtimoiy badiiy kontekstda qo‘llanish xusuiyatlari, turli ijtimoiy qatlam vakillaridan iborat personajlarning kommunikativ maqsadga erishishda tildan qanday foydalanishi, muloqotning muayyan ijtimoiy muhit, nutq vaziyati bilan bog‘liqligi, turli sotsial guruhga mansub personajlar muloqotida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy-madaniy omillar, shaxslarning ijtimoiy mavqeidagi tabaqalanish, ijtimoiy rollaridagi farqlanish va ularning badiiy matnda namoyon bo‘lishi, badiiy asarda personajlarning kasb-kori, yoshi, jinsi, kabilarning voqealanishi, personajlar nutqida ijtimoiy xoslangan birlilarning faollashuvi kabilar tadqiqotlarda o‘z yechimini topmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hakimov M. Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari.Darslik. – Toshkent, 2020.
2. Искандарова Ш. Ўзбек нутк оdatининг мулокот шакллари. Автореферат. – Самарканд. 1993
3. Berdialiyev A, Turdibekov M.Sotsiolingvistika. – Toshkent: Nodirabegim nashr, 2022.
4. Мўминов С. Ўзбек мулокот хулкининг ижтимоий - лисоний хусусиятлари. Автореферат. – Фарғона.2021
5. Safarov Sh. Pragmalingvistika .– Toshkent. 2020.
6. Nurmonov A. Tanlangan asarlar I jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012.
7. Хожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.
8. Yo‘ldosheva M. Xushmuomalalik nazariyasining sotsiopragmatik tadqiqi.Monografiya. – Namangan: Iste‘dod ziyo press,2025.
9. M.Xolmurodovanning Erkin A‘zam kinoqissalari tilining sotsiopragmatik aspekti. Avtoreferat.
10. Madaminova M. Matn pragmatik tavsifida sintaktik birliklarning o‘rni. – Toshkent:Bookmany print, 2023.